

“Applikatsiya” tushunchasi, uning turlari va texnik usullari

APPLIKATSIYA (lot. applicatio — yopishtirish) — gazlama, qog‘oz va b. materiallarga rang-barang gazlama, qog‘oz bo‘laklarini tikish yoki yopishtirish yo‘li bilan naqsh ishlash, bezash. Shu usulda yasalgan gul, tasvir ham Applikatsiya deb ataladi. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko‘chmanchi xalqlar orasida paydo bo‘lgan. Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turarjoylarini bezatishda foydalanganlar. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayèrlangan.

Applikatsiya (lot. Arnsayo - èpishtirish) - gazlama, qog‘oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, mato, charm, qog‘oz bo‘laklarini tikish èki èpishtirish yo‘li bilan naqsh solish, ularni bezash. Shu usulda yasalgan gul, tasvir ham applikatsiya deyiladi. Bu tasviriy san’at bilan shug‘ullanishning turli ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, badiiy tasvirni applikatsiya tarzida yaratish uslubidir.

Applikatsiya tasvirlash texnikalaridan biridir. Bunda turli shakllar boshqa bir materialga, ya’ni fonga qirqib èki yirtib èpishtiriladi. Asos sifatida karton, qalin qog‘oz, èg‘och, faner, orgalit bo‘lagi ishlatiladi. Applikatsiya qog‘oz, mato va turli tabiiy materiallardan tashkil qilingan bo‘lishi mumkin. Applikatsiya bu ham badiiy texnika, bunda surat detallar fonga èpishtirish bilan yaratiladi. O‘yinchoqlar, ertak qahramonlari shakli, qushlar, jonivorlar, odamni konstruksiyalashtirish uchun xilma-xil tabiiy materiallar ishlatiladi. Applikatsiya bolalarning tasvirlash faoliyati turlaridan eng sevimlisidir. Bolalarni qog‘ozning èrqin rangi, shakllarning ritmik ketma-ketligi quvontiradi. Qirqish va yopishtirish texnikalari ularda katta qiziqish uyg‘otadi. Applikatsiya - bu badiiy ishlarni yaratishning qiyin, ayni paytda sodda va tushunarli uslubidir. Bunda tasvirning real asosi saqlanib qoladi. Bu applikatsiyani nafaqat bezash maqsadida, balki kartina, bezaklarni yaratishda qo‘llashga imkon beradi. Applikatsiyaning asosiy xususiyatlari - bu siluetlilik, obrazni umumlashgan tarzda tasvirlanishi, rangli dog‘larning bir xilligi, bir tekisligi hisoblanadi.

Applikatsiya turlar bo‘yicha uch xil mashg‘ulotlarga bo‘linadi.

- Predmetli- amaliy-predmetli, ya’ni alohida tasvirlardan tashkil topgan applikatsiya.

- Dekorativ -dekorativ ya'ni, turli bezak elementlarini birlashtiruvchi applikatsiya.

- Syujetli - tematik -syujetli-tematik, qaysidir voqea èki hodisalarni aks ettiruvchi dekorativ applikatsiya.

Predmetli applikatsiya - bunda bolalar qog'ozdan qirqish va fonga alohida predmet tasvirlarini èpishtirish mahoratini o'zlashtiradilar. Faoliyat xususiyatiga ko'ra atrofdagi predmetlarni ancha umumlashgan shartli obrazi ulardan o'yinchoqlar, kartinalar, xalq amaliy san'ati namunalarida ifodalash mumkin bo'ladi. Boshlang'ich bosqichda tarbiyachi-pedagog tayyorlagan qismlardan predmetni yoyadi va yopishtiradi: koptok - turli rangdagi ikkita, yarimta bo'laklar, qo'ziqorin-qalpoqcha va oyoqcha, aravacha - to'rtburchak korpus va dumaloqg'ildiraklar; girlyan - to'g'ri to'rtburchak shakldagi bayroqchalar. Bolalar shakli, tuzilishi, ranglar birikmalari, xajmi, farqlangan predmetlarni tasvirlashlari mumkin. Predmetli applikatsiya uchun katta xajmdagi materiallarni tanlash kerak bo'ladi. Masalan, uzumning katta barglari, eman, zarrang, tol terak, kashtanning katta barglari èki tut barglari bo'lishi ham mumkin.

Dekorativ applikatsiya - turli bezaklar xosil qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi. Dekorativ applikatsiyada bolalar qirqish mahoratini va ritm, simmetriya bo'yicha turli rang birikmalarini turli bezak elementlarini birlashtirish, qirqish mahoratini o'zlashtiradilar. Bu mashg'ulotlarda bolalar real predmetlarni dekorativ stillashtirish, ularni tuzilishiga ahamiyat berish, namunalarni yangi sifatlar bilan boyitishni o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda bolalar yana quyidagilarni o'rganadi: real predmetlarni o'zgartirish, ularning tuzilishini umumlashtirish, namunalarni yangi sifatlar bilan taqqoslash.

Syujetli applikatsiya - o'z oldiga qiyin masalalarni qo'yadi va ba'zi bir qoidalarni bajarilishini talab qiladi: Rang, figura, shakl bo'yicha bir-birlariga to'g'ri keladigan tabiiy materiallarni yig'ish kerak. Masalan, barglar va o'tlar, chig'anoqlar va mayda toshlar, bujurlar qipiqdari. Asosiy e'tiborni fon va materiallar rangi mosligiga qaratish lozim. Aslida rang mutlaqo muhim emas, lekin kartina kayfiyatini yetkazib berishga yordam vazifasini o'taydi. Syujetdagi asosiy

obrazlarga asosiy personajlarni èrqn rang bilan kompozitsion yechim qilib olish, ya'ni alohida e'tibor qaratish kerak

Applikatsiya amaliy san'at turlaridan biri sifatida turli predmetlarni badiiy bezash va asosga qirqilgan dekorativ shakllarni èpishtirishda ishlatiladi. Applikatsiya o'ziga xosligi surat xarakterida va texnikasi bajarilishiga bog'liq. Odatda applikatsiyada ishlash uchun talangan materiallar va tasvirlash texnologiyasi jihatidan ham birbirlaridan biroz farqqiladi. Applikatsiya qatlamli, siluetli, mozaika (modulli) ko'rinishida, simmetrik, lentali applikatsiya kabi turlarga bo'linadi. **Qatlamli applikatsiya** - bunda ishni surat tasvirini, kompozitsiyasini o'ylab topishdan boshlash lozim. Barglardan kerakli detallar qirqib olinmasdan bir-birining ustiga qo'yish orqali tasvir hosil qilinadi. Bunday suratlardan ko'plab o'ylab topish mumkin. Masalan, kapalaklar, qo'ziqorinlar, jo'jalar, qushlar, xayvonlar va boshqalar shular jumlasidandir. Yetishmaètgan elementlarni esa flomaster bilan chizib qo'yish èki boshqa tabiiy materiallardan ham yasash mumkin

Siluetli applikatsiya - bu turdagi applikatsiyada aynan bolalar o'ylagan narsa bo'lishi uchun bargning ortiqcha qismlari kesib tashlanadi hamda kerakli shakl hosil qilinadi.

Mozaika (modul)li applikatsiya - bu texnika èrdamida surat tasviri ko'plab bir xil barglarni ustma-ust èpishtirish èrdamida hosil qilinadi (masalan, zarang daraxti urug'lari). Shuningdek, baliq tangachalaridan xo'roz dumini èki qushlarning ko'rinishini tasvirlash mumkin.

Simmetrik applikatsiya - simmetrik tuzilishga ega. Yana ikkita bir xil surat bo'lishi ham mumkin (masalan, suvdagi aksi). Shuning uchun bir xil shakldagi barglarni topish kerak bo'ladi.

Lentali applikatsiya - bu simmetrik applikatsiyaning bir turidir. Uning farqi shundaki, u bitta èki ikkita emas, balki ko'plab bir xil tasvirlarni, ornamentlarni ifodalash imkonini beradi. Daraxtlar, gullar, qo'ziqorinlar, kapalaklar va boshqalar bir-biriga tutashgan o'yinchoqlar ko'rinishini hosil qiladi. Natijada har xil ko'rinishlardan yig'ilgan, katta bo'lmagan suratlar to'plamidan foydalanib, bolalarga doira ko'rinishdagi o'yinchoqlarni qanday tasvirlanishni ko'rsatish

mumkin bo'лади. Bolalarga fantaziyasi, g'oyasidan foydalanib chiroyli tabiiy materiallardan, kuzgi barglardan obrazli tasvirlar yaratish imkonini beradi

Applikatsiyada qirqish usullari

1. Geometrik shakllar qirqish.
2. Ikki buklab qirqish.
3. Bir necha marotaba buklab qirqish.
4. Qismlar asosida buklab qirqish.
5. Kontur asosida qirqish.
6. Qat-qat qilib buklab qirqish.
7. Siluet-chamalab qirqish.
8. Qo'lda yirtish.

Applikatsiya qilishda oddiy va murakkab qirqish usulidan foydalaniladi. Oddiy qirqish usuli bilan yaxlit shakl hosil qilinadi va qirqilgan shakl teng va tekis qirqiladi.

Applikatsiya bajarilish ashyosiga asosan nomlanadi:

1. Rangli qog'ozdan aplikatsiya.
2. Tashlandiq materiallaridan aplikatsiya.
3. Momiq paxtalardan èki sintepondan aplikatsiya.
4. O'simlik bargi, urug'idan aplikatsiya.
5. Mato qoldiqlaridan aplikatsiya.
6. Qum, yog'och kukuni, tuxum po'chog'idan aplikatsiya.
7. Qurigan choy qoldig'idan aplikatsiya.
8. Qoldiq jun iplardan aplikatsiya.
9. Biser, dur donachalaridan aplikatsiya.

Applikatsiya bilan shug'ullanish bolalarning garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Aplikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi. Aplikatsiya ishlari doimo

xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi.

Rasm va applikasiya. "Men va mening oilam".

Maqsad: bolalar oilalari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va oila a'zolarini tasvirlab berish malakasiga ega bo'ladilar. Bajarilayotgan ishda rasm chizish va applikasiya kabi ikkita ijod turini uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Ish jarayonida tatibli bo'lishga o'rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: oilaviy fotosuratlar to'plami, AKT vositalari, qog'oz, buyoqlar, qaychi, yelim, qalamlar.

Faoliyatning borishi:

1. "Men va mening oilam" mavzusidagi rasmlarni ko'rib chiqish.
2. O'z oilaviy an'analari haqida gapirib berish.
3. Ishlash texnologiyasini tanlash (applikasiya bilan rasm chizish).
4. Bolalar ishlari va ularni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalar ishlari ko'rgazmasini tashkil etish.

E'tiborga molik jihati: ozoda ishlay olish malakalari va hayot xavfsizligiga rioya qilish.





Applikatsiya: Qushlar

Maqsad: bolalarda mayda qo‘l motorikalari rivojlanadi, qog‘ozni buklash usulidan foydalanib shakl berish malakalari oshadi, jamoa bilan kompozitsiya tuzishni o‘rganadilar.


Kerakli jihoz va materiallar: oq qog‘oz, rangli qog‘oz, qaychi, yelim, salftkalar, tayyor namuna, “Qushlar uchib ketmoqda” mavzusidagi rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va rasmlar asosida suhbat.
2. Jihzlarni taqsimlash, rejalashtirish.
3. Bolalar ijodi.
4. Applikatsiya ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: “Ramka” yasashni taklif etish, kompozitsiyani ramkaga solish.

E’tiborga molik jihati: gigiena va hayot muhofazasi qoidalariga rioya qilish.













Applikatsiya: “Chanoqdagi paxta”

Maqsad: paxta ko‘rinishini tasvirlab berishni biladilar, qaychi bilan ishlash malakalari ortadi, mayda qo‘l motorikalari rivojlanadi, ijodiy fikrlashga o‘rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: gazeta, xamirli yelim, oq qog‘oz, pape-mashening asosi uchun yumaloq va yarim dumaloq predmetlar, mo‘yqalam, rangli qog‘oz, paxta.

Faoliyatning borishi:

1. Haqiqiy paxtaga qarab uni o‘rganib chiqish.
2. Pape-mashe usulida paxta yasash sxemasini tuzish
3. Paxtaning chanoq qismini yaratish
4. So‘ng asosiy qismiga o‘tish.
5. Tayyor ishlarni kuzatish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalar ish yakunida foydalanish uchun bargchalar tayyorlash va o‘z ishlari bilan qo‘shib kompozitsiya yaratish taklif etiladi.

E‘tiborga molik jihati: batartiblik va ehtiyot qilishlik fazilatlarini tarbiyalash, ish joyini tozalashga o‘rgatish, mustqil ishlashga yo‘naltirish.



Tabiat materiallaridan applikasiya: transport turlari

Maqsad: bolalar mayda qo'l motorikasi, tasavvurlarini rivojlantiradilar, did bilan bezatish, applikasiyada tabiat materiallarini uyg'unlashtirishni biladilar, o'z ijodlaridan zavqlanadilar, chiroyli so'zlar bilan yaratgan asarlarini ifodalab beradilar.


Kerakli jihoz va materiallar: tabiat materiallari, rangli kartonlar, qog'oz, yelim, stepler, ramkalar.


Faoliyatning borishi:

1. "Transport" mavzusidagi rasmlarni ko'zdan kechirish.
2. Tasviriy san'at faoliyati noan'anaviy texnikasi bilan tanishish.
3. Rasm va tabiat materiallarini tanlash.
4. Bolalar bilan mavzu asosida applikasiya ishini bajarish.
5. Bolalarning tayyorlagan rasmlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: tarbiyachi bolalarga applikasiyani bezatish, mavzuga oid she'r yoki qo'shiq kuylashni taklif qilishi, ko'rgazma tashkil etishi mumkin.

E'tiborga molik jihati: tartibli va gigienik talablarga mos ishlashga o'rgatish. Tasavvuri va qo'l mayda motorikasini rivojlantirish. Hayot xavfsizligi asoslari.







Applikatsiya: Kasblar kitobchasi

Maqsad: kasblar to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar, ayrim kasblarning asosiy vazifasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog'oz, karton, kasblar to'g'risida rasm va tabriknomalar, yelim, qalam, qaychi, salfetka; kitobchani jamlash namunasi.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bo'yicha kitobchani yasash
2. Jurnallardan kasblar to'g'risidagi rasmlarni tanlab va ularni qirqib olish.
3. Kitob varaqlarini kasblar to'g'risidagi rasmlar bilan to'ldirish va kasblar nomini har bir rasm tagigabosma harflarda yozib chiqish.
4. Kitob muqovasini bezash.

Qo'shimcha: o'z kitoblari bilan bir-birlarini tanishtirish.

E'tiborga molik jihat: ishga ijodiy yondasha olish, batartib ishlay olish va ish joyini tartibga keltirish.





Applikatsiya “O‘zbekiston bayrog‘i”

Maqsad: bolalar turli materiallardan yassi applikatsiyani ijodiy bajaradilar(qog‘oz, mato). Ularda vatanga bo‘lgan iftihor hissi tarbiyalanadi.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog‘oz, bayroq rangiga mos rangli matolar, yelim, qaychi, salfetkalar, qog‘oz.

Faoliyatning borishi:

1. O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘zdan kechirish (stol varianti).
2. Bolalar tomonidan ishni bajarish uchun materialni tanlash.
3. Bolalarning ijodiy faoliyati.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga vatan haqidagi she‘rni aytib berishni taklif qilishi mumkin.

E‘tiborga molik jihati: tartibli va ozoda ishlash, boshqalarga ko‘maklashish.



Applikatsiya va konstruksiya:Do‘ppi

Maqsad: bolalar qog‘oz bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qiladilar, kesib chiqish usullaridan foydalanadilar, do‘ppida naqshlarni chiroyli joylashtirishni o‘rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qog‘oz, yelim, salfetka, rangli qog‘oz, do‘ppining tayyor namunasi, konstruksiyalash bosqichlariga oid kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Haqiqiy do‘ppi va tayyor namunani ko‘rib chiqish.
2. Qog‘ozdan do‘ppi yasashning konstruksiyalash bosqichi bilan tanishish.
3. Naqshni kesib chiqish usullari bilan tanishish.
4. Do‘ppi yasash.
5. Bolalarning ijodiy ishi, do‘ppini bezash.

Qo‘shimcha : O‘zbekistonning turli hududlariga xos do‘ppilarni tomosha qilish.

E‘tiborga molik jihati: qaychi bilan to‘g‘ri ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlash, qo‘lning mayda motorikasini rivojlantirish.





Applikatsiya: Qishki olimpiada o‘yinlari Jamoa ishi

Maqsad: bolalar olimpiada ramzini va olimpiada xalqalarining ranglari uyg‘unligini qog‘ozga tushiradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog‘oz, oq karton qog‘oz, tuxum po‘chog‘i, yelim, qaychi, guash, mo‘yqalam.

Faoliyatning borishi:

1. Xalqalar chetiga mo‘yqalam bilan yelim surtish.
2. Xalqa chetiga surilgan yelimga mustahkam qilib tuxum qobig‘idan mozaika joylashtirish.
3. Tuxum qobig‘iga olimpiada xalqalarining ranglari uyg‘unligiga muvofiq rang berish.

Qo‘shimcha: bolalarga olimpiada ramzi, mayog‘i, bayrog‘i, va xalqalari haqida hikoya qilib berish. Olimpiada bayrog‘ini rangli qog‘ozlardan tayyorlash va qog‘oz teshish moslamasi yordamida rangli doirachalar yog‘dusini yaratish mumkin.

E‘tiborga molik jihati: bolalarning birgalikda ijod qilishi hamda mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish

Applikatsiya: Vatan himoyachilari kuniga tabriknoma

Maqsad: bolalar o'zbek armiyasi haqida tasavvurga ega bo'ladilar, Vatan himoyachilari kuni qachon nishonlanishini biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog'oz, karton, rasm va "O'zbek armiyasi" mavzusiga oid tabriknomalar, yelim, rangli qalamlar, qaychi, salftka, taxtachalar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar bilan tayyorlangan tabriknomalarning bir necha nusxasini ko'rish.
2. Bayram tabriknomasini tayyorlash jarayoni.
3. Tabriknomalar ko'rgazmasini tashkil etish

Qo'shimcha: jamoa bo'lib tabriknoma tayyorlash va uni "Ota-onalar uchun ma'lumotlar" burchagiga joylashtirish.

E'tiborga molik jihati: jamoa bo'lib ishlash, ishga ijodiy yondashish.

Applikatsiya: Odamchamizni kiyintiramiz

Maqsad: bolalar applikatsiya yasashda turli qog'ozlardan foydalanadilar, ranglar hamohangligini tanlay oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qaychi, pva yelim, mo'yqalam, nam salftka, kleyonka, rangli karton, flomaster, munchoq, tugmacha, kiyim rasmlari

Faoliyatning borishi:

1. Qurilish markazida yasagan odamchalarni olish va ularga qanday kiyim yasashni tanlash.
2. Rangli qog'oz tanlash va undan kiyim yasash.
3. Kiyimni bezatish.

Qo'shimcha qism: bolalar ijodlari ko'rgazmasini o'tkazish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning ijodiy tasavvurini shakllantirish

Applikatsiya: Do'stim uchun tabriknoma

Maqsad: bolalar mustaqil holda tabriknoma tayyorlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: ishni bosqichma-bosqich bajarish bo'yicha yo'riqnoma, rangli karton, rangli qog'oz, qaychi, yelim, mo'yqalam, salftka, bo'yoq, kleyonka.

Faoliyatning borishi:

1. Kompozitsiyani tanlash.
2. Ishni sxema asosida bosqichma-bosqich bajarish (tarbiyachining tanlovi asosida namunalar har xil bo'lishi mumkin).
3. Tayyor ishlar muhokamasi va rag'batlantirish

Qo'shimcha qism: bolalarga o'zlarining tabriknomasini o'ylab topish taklifini berish.

E'tiborga molik jihati: bolaning ijodiy layoqati va rang tanlash qobiliyatini rivojlantirish

Jamoaviy applikasiya: Ko‘zani milliy naqshlar bilan bezatish

Maqsad: bolalar ko‘zani milliy naqshlar bilan bezatadilar, milliy naqsh elementlaridan to‘g‘ri kompozitsiya tuzadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: turli xil va kattalikdagi ko‘zalar namunasi, rangli qog‘oz, qaychi, yelim, sochiqcha.

Faoliyatning borishi:

1. Milliy naqsh elementlari bilan bezatilgan ko‘zalar suratlarini tomosha qilish.
2. Applikasiya ishining tartibini ko‘rsatib berish.
3. Bolalarning ijod faoliyati .
4. Bolalar ishlarining ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha qism: bolalarning amaliy ish jarayonida milliy musiqani qo‘yish.

E‘tiborga molik jihati: bolalarning diqqatini milliy naqsh elementlarining xilma-xilligiga qaratish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.





Applikatsiya: Buvim uchun guldasta

Maqsad: bolalar qog'ozdan gullar yasay oladilar. Kompozitsiyani qog'ozga to'g'ri joylashtirishni biladilar. Gullar uchun ranglarni to'g'ri tanlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: gulni joylashtirish uchun yorqin rangdagi karton, rangli qog'ozlar, guldon shabloni, konfet qog'ozlari, qaychi, salfetka, yelim.

Faoliyatning borishi:

1. Guldonda tasvirlangan gullar rasmlarini ko'rib chiqish.
2. Namuna (sxema)ga qarab konfet qog'ozlaridan gulning markaz qismini tayyorlash.
3. Bolalar faoliyati.
4. Bolalar ishlarining ko'rgazmasini tashkil etish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: yasashning boshqa usullarini ko'rsatish.

E'tiborga molik jihati: ozoda ishlash, ish joyini yig'ishtirish, hayot xavfsizligiga rioya etish.



Applikatsiya: Bug‘doy boshoqlari

Maqsad: bolalar bug‘doy boshoqlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, tengdoshlari bilan jamoa bo‘lib ishlaydilar, kompozitsiya yaratadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog‘ozlar, qaychi, yelim, salfetkalar, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani o‘rganish.
2. Qirqish (qo‘lda maydalash) va yopishtirish.
3. Grafik elementlar bilan applikatsiyani bezash.
4. Bolalar ishi ko‘rgazmasi va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: shaxsiy shkafchalarini o‘z ishlari bilan bezash.

E‘tiborga molik jihati: qo‘l mayda motorikasini rivojlantirish.



Applikatsiya: O‘zbekiston hayvonlari

Maqsad: bolalar hayvonlarning nomini biladilar, qaychini maqsadli ishlatadilar, jamoada maslahatlashib ishlaydilar, kerakli o‘rinda bir-birlarini qo‘llab- quvvatlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: vatman qog‘oz, yelim, qaychi, rangli qog‘oz, oq qog‘oz, bo‘yoqlar, salfetka, o‘yinchoq hayvonlar.

Faoliyatning borishi:

1. O‘zbekiston hayvonlarini eslash.
2. “O‘zbekiston hayvonlari” mavzusidagi applikatsiyaga g‘oya tanlash.
3. Kerakli materiallarni tanlash.
4. Bolalarning ijodiy ishlari.

Qo‘shimcha: bolalar ishlari ko‘rgazmasini tashkil etish.

E‘tiborga molik jihati: ish jarayonida emotsional kayfiyat, bilimlarni ijodiy qo‘llash.





Applikatsiya: Mening xonam

Maqsad: bolalar ishga ijodiy yondashadilar, ranglar va uning anvoyi turlarini biladilar, turli xil shakllardan kompozitsiyalar yasab, ishonch bilan ishlaydilar.


Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog‘oz, qaychi, yelim, flomasterlar, qalamlar, salfetaklar, mato qiyqimlari.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar bir-birlariga o‘z xonalarini qanday tasavvur etishlarini aytib beradilar.
2. Kompozitsiya yaratish uchun zarur materialni tanlaydilar.
3. Bolalar ishni bajaradilar.

Qo‘shimcha: bolalar applikatsiyada tasvirlagan xonalari to‘g‘risida aytib berishadi.

E‘tiborga molik jihati: qiziquvchanlikning shakllanishi, ijodiy tasavvurining rivojlanishi, applikatsiya bilan ishlashda texnik ko‘nikmalarning shakllanishi.



Applikatsiya: Sandiqni bezaymiz

Maqsad: bolalar qaychi bilan to'g'ri ishlay olishni, naqsh bo'laklarini namunaga qarab to'g'ri qirqa olishni, rang va uning tuslarini biladilar. Turli shakllardan kompozitsiya yasab, ishonch bilan ishlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: namuna, sandiq, rangli qog'ozlar, qaychi, yelim, flomasterlar, salftkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va xalq amaliy san'ati buyumlaridagi naqshlarni tomosha qilish, o'zbek xalq naqshlarining o'ziga xosligini ajratish (o'ramlar, doiralar, paxta, to'liqlik chiziqlar va h.z.)
2. Bolalar sandiqlari uchun naqsh o'ylab topishadi.
3. Ishning bolalar tomonidan bajarilishi.

Qo'shimcha: bolalarning ishlaridan ko'rgazma tashkil etish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlanganligi, applikatsiya ishida texnik ko'nikmani egallaganliklari.

